PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN ISHLASHNING AMALDAGI XOLATLARI (PISA MISOLIDA)

Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li
Namangan pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi
abdujalilovfarrux32@gmail.com
+99833-035-43-43

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada muallif tomonidan yangi avlod darsliklarining mazmuni, tuzilishi va ulardan foydalanishning amaldagi holatlari PISA (Programme for International Student Assessment (PISA)) talablari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yangi avlod darsliklarining afzalliklari, ularni amaliyotga joriy etishdagi muammolar hamda PISA mezonlariga moslashtirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yangi avlod darsliklari, PISA, funksional savodxonlik, ta'lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, xalqaro baholash, o'quv jarayoni, innovatsion ta'lim, amaliy ko'nikmalar, ta'lim samaradorligi.

ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ С УЧЕБНИКАМИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ PISA)

Аннотация: в данной научной статье автор анализирует содержание, структуру и текущее состояние использования учебников нового поколения на основе требований PISA (Международной программы по оценке образовательных достижений учащихся). В ходе исследования рассматриваются преимущества учебников нового поколения, проблемы их внедрения в практику, а также перспективы их адаптации к критериям PISA.

Ключевые слова: учебники нового поколения, PISA, функциональная грамотность, качество образования, компетентностный подход, критическое мышление, международная оценка, учебный процесс, инновационное образование, практические навыки, эффективность образования.

THE CURRENT STATE OF WORKING WITH NEW-GENERATION TEXTBOOKS (A PISA CASE STUDY)

Abstract: In this academic article, the author analyzes the content, structure, and current application of new-generation textbooks based on the requirements of the Programme for International Student Assessment (PISA). The study examines the advantages of new-generation textbooks, the challenges in their implementation, and the prospects for aligning them with PISA criteria.

Keywords: new-generation textbooks, PISA, functional literacy, education quality, competency-based approach, critical thinking, international assessment, educational process, innovative education, practical skills, educational effectiveness.

Kirish (Introduction):

Globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsion davrda jahondagi ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. Ta'lim orqali esa jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA[1]

1 Programme for International Student Assessment

(O‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS[2] (Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro dastur), TIMSS[3] (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi asosiy mezon sifatida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Shu nuqtai nazardan, badiiy matn bilan ishlash metodikasi an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda interaktiv va innovatsion usullarga asoslanadi. Badiiy matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki muhim hisoblanadi. O‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va motivator sifatida faoliyat yuritadi. Matn ustida ishlashning samarali usullaridan biri - savol-javob asosida tahlil qilish bo‘lib, bu usul o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. Shuningdek, muammoli savollar berish orqali o‘quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga undash mumkin. Bundan tashqari, badiiy matn bilan ishlashda rolli o‘yinlar, dramatizatsiya va ijodiy topshiriqlar keng qo‘llaniladi. Masalan, matndagi qahramonlar rolini ijro etish orqali o‘quvchilar obrazni chuqurroq anglaydi va matn mazmunini yaxshiroq o‘zlashtiradi. Ijodiy yozma ishlar esa o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yangi darsliklar asosida matn bilan ishlashda klaster, konseptual xaritalar, “aqliy hujum” kabi metodlardan foydalanish ham samarali natija beradi. Bu usullar o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishga va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish badiiy matnni yanada qiziqarli va tushunarli qilish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar(Literature analysis and methods):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712 sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo‘yilgan[4]. Xalq ta’limi tizimining strategik maqsadlari belgilab qo‘yilgan va ular quyidagilar: ya’ni umumta’lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish; inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish belgilangan[5].

Respublika Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ning bevosita uchinchi bobida «xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro dasturlarni tashkil etish maqsadida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan PISA umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish» alohida ta’kidlab o‘tilgan[6]. Shuningdek, mazkur konsepsiya asosida «o‘quv muddatlarini o‘zgartirmagan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish[7]»ga muhim e’tibor

2 PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study

3 Trends in International Mathematics and Science Study

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 3-bob, 7-band // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 3-bobi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 3-bobi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

qaratilgan. Ta’lim tizimining mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda «ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko‘zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish[8]» ko‘rsatib o‘tilgan.

Global o‘zgarishlar davrida turli darajadagi ta’lim sifatini baholash tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro solishtirma dasturlarida O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta’lim tizimining salohiyatini oshirish imkoniyati sifatida qaraladi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro solishtirma dasturlar natijalarning kompleks tahlillari, o‘quvchilarning o‘qish, tabiiy fanlar, matematik va ijodiy fikrlash savodxonligini baholash, xalqaro dasturlar metodologiyasi va baholash mezonlaridan milliy o‘quv-uslubiy va o‘lchov materiallarini yaratishdan foydalanishga turtki bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon «umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish[9]» maqsadida qabul qilingan. Farmon orqali «O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishishga erishish» belgilab qo‘yilgan. Farmon bilan tasdiqlangan konsepsiyada o‘z navbatida buning uchun qilinishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar belgilab qo‘yilgan. Jumladan, «o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbik etish»[10] kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan. Konsepsiyada xalq ta’limi tizimidagi ba’zi muammoli holatlar ham o‘z ifodasi topgan. Xususan, «pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarning mazmunan eskirib qolganligi», «pedagoglarning metodik ta’minoti» qoniqarli emasligi, «darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo‘qligi, ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga» omil bo‘lib qolayotganligi, «ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta’sir[11]» etishi keltirilgan. O‘z navbatida «davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek, darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va band qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda», «foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o‘quv qo‘llanmalarini qo‘shimcha va muqobil o‘quv materiallari sifatida qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda»[12] deb bayon etilgan.

---

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son

Metodologiya (Methods):

1. Yangi avlod adabiyot darsliklarining nazariy asoslari Yangi avlod darsliklari ta'limning kompetensiyaviy yondashuviga asoslanib yaratiladi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchi faqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi emas, balki bilimlarni mustaqil egallovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo'llay oluvchi shaxs sifatida shakllanadi.

2. Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar tushunchasi Innovatsion texnologiyalar - bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metod, usul va vositalar majmuidir. Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar badiiy asarni faqat mazmunan o'rganish bilan cheklanmasdan, uni tahlil qilish, baholash va ijodiy qayta ishlash imkonini beradi.

3. Innovatsion texnologiyalarning yangi avlod darsliklari bilan uyg'unligi Yangi avlod adabiyot darsliklari innovatsion texnologiyalarni qo'llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Darsliklardagi ochiq savollar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar o'qituvchini interaktiv metodlardan foydalanishga undaydi.

4. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri Adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarni ta'minlaydi

5. O'qituvchining innovatsion faoliyati va kasbiy kompetensiyasi Innovatsion texnologiyalar samaradorligi bevosita o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

«Xalqaro dasturlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash», «Xalqaro dasturlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash», «Xalqaro dasturlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash», «Xalqaro dasturlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash» nomli metodik qo'llanmalar xalqaro baholash dasturlari haqida umumiy tushunchalar, asosiy tamoyillar haqida ma'lumotlar berish va o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriqlardan namunalarni hamda ularni baholash mezonlarini o'z ichiga oladi[13].

Natijalar (Results):

Jumladan, o'rta ta'lim maktablarini zamonaviy axborot kommunikatsiyalari (kompyuter, modem, proektor) va internet tarmog'iga ulanganligi, PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etishga tayyorgarlik faqatgina maqsadli guruhlar uchun bo'lmay, balki maktabdagi to'liq o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning qobiliyati va iqtidorlarini quyi sinflardan boshlab aniqlash va rivojlantirish va shuning asosida o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishini ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Bu o'z navbatida xalqaro dastur natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi avlod darsliklari o'quvchilarda nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish va muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. PISA talablari asosida ishlab chiqilgan mazkur darsliklar o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyotda ushbu darsliklardan foydalanish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

[13] Xalk ta'limi tizimida ta'lim sifatini baxolash soxasidagi xalkaro tadkikotlarga tayyorgarlik kurish va tashkil etish mavzusida kullanma// Namangan viloyat xalk ta'limi boshkarmasi, Ta'lim sifati monitoringi bulimi, 2019. B.5

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Programme for International Student Assessment.
2. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study.
3. Trends in International Mathematics and Science Study.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 3-bob, 7-band // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 3-bobi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 3-bobi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
13. Xalk ta’limi tizimida ta’lim sifatini baxolash soxasidagi xalkaro tadkikotlarga tayyorgarlik kurish va tashkil etish mavzusida kullanma// Namangan viloyat xalk ta’limi boshkarmasi, Ta’lim sifati monitoringi bulimi, 2019. B.5